Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishla...

ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

4. Jahon Banki Guruhi. (2022). O‘zbekistonda moliyaviy inklyuziya: baholash va tavsiyalar.
5. CGAP. (2023). Raqamli moliyaviy xizmatlar: mikrokredit uchun ahamiyati.
6. O‘zbekiston Moliya Vazirligi. (2023). Milliy buxgalteriya standartlari yangilanishi.
7. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi. (2023). O‘zbekiston moliya sektori baholash dasturi.
8. O‘zbekiston Mikrokredit Tashkilotlari Assotsiatsiyasi. (2023). Sanoat hisoboti.
9. Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki. (2023). O‘tish davri hisoboti: O‘zbekiston.
10. BMT Taraqqiyot Dasturi. (2023). Markaziy Osiyoda moliyaviy inklyuziya va kambag‘allikni qisqartirish.

AGROBIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO‘JALIGI KOOPERATIVLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ablazov SHohruh Abduqaxxorovich
(AQXAI tayanch doktoranti)
shokh.ablazov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko‘p tuzilmali iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligida kooperativlarning tamoyillari, ularni tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan va tadqiqot jarayonida olingan natijalari xususida so‘z yuritilgan, shuningdek, o‘rganish natijalari asosida fikr va mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, eksport, xalqaro standartlar, Organic, Global G.A.P. talablari, ko‘p tuzilmali iqtisodiyot, qo‘shma tadbirkorlik, sifatli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, ishlab chiqarish vositalari, narxlarning nomutanosibligi, qishloq xo‘jaligi kooperativlari, yangi avlod kooperativlari.

Bugungi globallashuv sharoitida yetishtirilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatini yaxshilash, eksportbob mahsulot ishlab chiqarishda xalqaro standartlashtirilgan qishloq xo‘jaligi amaliyoti Organic, Global G.A.P. talablari doirasida sertifikatlashni joriy qilish va eksport hajmini muntazam oshirib borish, ishlab chiqaruvchilarning iste’molchilar ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilganligini oshirish hamda ilg‘or xorijiy davlatlar tajribalarini faol qo‘llashni taqazo etmoqda.

Bunday sharoitda iqtisodiy tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning muhim omili sifatida hududiy tabiiy-iqlim va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga asoslangan xo‘jalik yuritishning turli shakllaridan samarali foydalanish muhim bo‘lib hisoblanadi.

Ko‘p tuzilmali iqtisodiyotga o‘tish, shaxsiy va qo‘shma tadbirkorlik tamoyillari bo‘yicha turli xil xo‘jalik yuritish shakllarining mavjudligiga teng huquqlarning qonun hujjatlarida mustahkamlanishi iqtisodiy faoliyatning shartlari va shakllarini erkin tanlash imkoniyatini ochib beradi. Jamiyatni sifat jihatidan o‘zgartirishning umumiy zanjirida qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasining turli shakllari muhim o‘rin tutadi. Qishloq xo‘jaligida ish haqining past darajasi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va ishlab chiqarish vositalari narxlarining nomutanosibligi qishloq aholisini shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarida ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga turtki bo‘ldi, bu qishloq xo‘jaligi kooperativlarini shakllanishiga turtki berdi.

Published: 23.12.2024
Cite this article: Ablazov Shohruh Abduqaxxorovich (2024). Agrobiznesni rivojlantirishda qishloq xo‘jaligi kooperativlarining o‘ziga xos xususiyatlari. Emro Science and Education, 1(4). https://journal.emro.uz/public/maqola/968
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Kooperativlar ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning tarixan vujudga kelgan va doimiy ravishda takomillashib boradigan shakli sifatida ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida jamiyatning iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish usulidir.

Qo‘shma Shtatlar (AQSH) Milliy kooperativ biznes uyushmasi boshqa (investorlarga yo‘naltirilgan) korxonalarga nisbatan kooperativlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ta’kidlaydi:

- Kooperativlar o‘zlarining a’zolari tomonidan (ya’ni kooperativning xizmatlaridan foydalanuvchi yoki uning mahsulotlarini sotib oladigan) tashqi investorlarning emas, balki o‘z a’zolari tomonidan demokratik tarzda boshqariladi. A’zolar o‘zlarining direktorlar kengashini o‘z saflaridan saylaydilar. Asosiy siyosiy qarorlar har bir a’zoning kooperativga kiritgan sarmoyasidan qat’i nazar, bitta a’zoga, bitta ovozga asoslangan tamoyilga asoslanadi;
- Kooperativlar ortiqcha daromadni (xarajatlar va investisiyalardan keladigan daromad) ulardan foydalanish yoki homiylik qilishlariga mutanosib ravishda a’zolariga qaytaradilar, lekin ularning investitsiyalari yoki egaligi ulushiga mutanosib emas;
- Kooperativlar foyda bilan emas, balki a’zolarning arzon va sifatli tovarlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat ko‘rsatadi;
- Kooperativlar o‘z a’zolariga xizmat ko‘rsatish uchun mavjud;
- Kooperativlar investitsiya va zaxiralar uchun saqlanib qolgan daromaddan soliq to‘laydilar[31].

Kooperativ- (lot. hamkorlik) – mahsulotni hamkorlikda ishlab chiqarish va sotish, tovar yoki xizmatlarni sotib olish va iste’mol qilish, uylarini qurish va ekspluatatsiya qilish va boshqa maqsaddagi shaxslar birlashmasidir.

Kooperativ – ixtiyoriy tashabbuskor va o‘z-o‘zini boshqaruvchijamoat tashkiloti bo‘lib, o‘z oldiga a’zolarining hayot va mehnat sharoitlarini yaxshilashga ko‘maklashish maqsadini qo‘yadi va jamoa (guruh) mulkiga asoslangan korxona shaklida ijtimoiy-ommaviy faoliyatko‘rsatish bilan birga yuridik shaxs sifatida harakat qiladi.

Kooperatsiyaga birlashish orqali agrosanoat majmuasida zamonaviy texnika va tejamkor texnologiyalar bilan ta’minlashni jadallashtirish, ishlab chiqarish xarajatlarini tejash va tejamkor innovatsion texnologiyalarni qo‘llash imkoniyati, mahalliy oziq-ovqat va boshqa iste’mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyati tug‘iladi.

Qishloq xo‘jaligida kooperatsiya 4 xil yo‘nalishda mavjudligini aytish mumkin[32]:

1. Kooperatsiya ishlab chiqaruvchi firma (korxona) shaklida mavjud bo‘lib, bunda korxona (kooperativ) a’zolarini aniq maqsad yo‘lida birlashtirgan bo‘lib, u a’zolarining birgalikdagi mehnatiga asoslanadi. Natijada ularning manfaatlari va foyda olishlarini ko‘zlaydi.

2. Qishloq xo‘jaligida kooperatsiya munosabatlari vertikal integrastiyaga asoslanadi. Bunda qishloq xo‘jaligi korxonalari, ularni saqlovchi va qayta ishlovchi korxonalarning o‘zaro kelishuvi asosida tashkil etiladi va faoliyat yuritadi. Bunda korxonalarning mustaqilligi saqlanib qoladi.

3. Hamkorlikda ishlaydigan korxona (xo‘jalik) va firmalarning ittifoqi

[31] GF Ortmann & RP King. Agricultural Cooperatives I: History, Theory and Problems//Agrekon, Vol 46, No 1 (March 2007)// http://citeseerx.ist.psu.edu/viewdoc/download?doi

[32] Туробова Х., Мадаминова З. Бухоро вилоятида фермер хўжаликларини ривожлантириш йўллари//Эл. Ж.Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. Т.: 2018.№2 www.iqtisodiyot.uz

(koalistiyasi) shaklida faoliyat yuritadi.

4. Qishloq xo‘jaligi korxonalari va unga aloqador tashkilotlar bilan shartnomaviy munosabatlar asosida faoliyat yuritishi tushuniladi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuv jarayoni kooperativ tashkilotlarning davlat, manfaatli tashkilotlar hamda xususiy sektorning hamkorligini kengaytirish; xo‘jaliklar faoliyatini diversifikatsiyalash va boshqaruvni takomillashtirish zarurligini keltirib chiqaradi.

Yangi avlod kooperativlarida mulkchilik huquqi yetkazib berish huquqi shaklida ya’ni a’zo-mijoz guruhi o‘rtasida sotib bo‘ladigan darajada bo‘ladi. Mulkchilik huquqida kooperativ birashmasi a’zolari (ishtirokchilari) chegaralangan bo‘ladi, a’zolik yopiq ko‘rinishda, a’zolarga “etkazib berish huquqi”ga proportsional tarzda investitsiyalariga kiritishi talab etiladi. Va ta’minot bozor kelishuvlari asosida nazorat qilinadi. Asosiy afzalligi shundaki, bu model risk kapitalini kooperativga berish orqali a’zolarni rag‘batlantirishni takomillashtiradi.

Bizning fikrimizcha, kooperativ – bir gurux insonlarning ixtiyoriy tashabbuskor va o‘z-o‘zini boshqaruvchi jamoat tashkiloti bo‘lib, ular o‘z oldiga a’zolarining hayot va mehnat sharoitlarini yaxshilashga ko‘maklashish maqsadini qo‘yadi va sheriklik mulkiga asoslangan korxona shaklida ijtimoiy-ommaviy faoliyat ko‘rsatish bilan birga yuridik shaxs sifatida harakat qiladi.

Kooperativ – tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun o‘zlarining teng **(bir xil va teng miqdorda qo‘shgan ulush hisobiga shakllantirilgan bo‘lishi shart)** pay ulushlari asosida shaxslarning ixtiyoriy birlashuvi orqali tashkil etiladi va o‘z-o‘zini moliyalashtirish asosida faoliyat ko‘rsatadi.

SHu bilan birga kooperatsiyalashgan xo‘jaliklarning o‘zlari o‘z faoliyatining huquqiy shaklini oqilonalik mezoni bo‘yicha tanlaydi.

SHu sababli, bizning fikrimizcha, qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotining alohida muammosi zamonaviy sharoitda qishloq xo‘jaliklarining kooperativ birlashmalarining shakllanishi va faoliyati bilan bog‘liq masalalarning yetarli darajada nazariy va uslubiy jihatdan o‘rganilmaganligi bo‘lib, bu ko‘pincha ularning rolini yetarlicha baholamaslik yoki ortiqcha baholashga olib keladi. Qishloq xo‘jaligida kooperatsiya asosida faoliyat yurituvchi qishloq xo‘jaligi kooperativlarning o‘rni va rolini, ularni shakllantirish va yanada rivojlantirish yo‘llarini o‘rganish ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarbdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori PQ-4863-son 15.10.2020 y

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 15 martdagi “Ichki iste’mol bozorini asosiy turdagi oziq-ovqat maxsulotlari bilan kafolatli ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi №135 qarori.

3. Mirziyoyev Sh.M. Meva-sabzavotchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish va eksportini oshirish, aholi tomorqalaridan samarali foydalanishni ta’minlash masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi. 05.11.2019. www.xabar.uz.

4. Modeli upravleniya nauchno-innovatsionnoy deyatelnostyu vuza”/ avtorы mejdunarodnoy kollektivnoy monografii: Sh.Sh. Shoxa’zamiy, D.V. Puzankov, A.V. Vaxobov, V.M. Kutuzov, A.V. Muravev, M.Yu. Shestopalov, N.G. Rыjov, I.S. Terenteva. - T.: Iqtisod-moliya, 2006. – 242 s.

5. Shoxa’zamiy Sh.Sh. Traktat o smart tsifrovoy respublike. Monografiya. -T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. -352 s.

6. Shoxa’zamiy Sh.Sh. Puti povыsheniya konkurentosposobnosti gosudarstvennыx vыsshix uchebnыx zavedeniy.// “Oliy ta’lim taraqqiyoti istiqbollari”

O‘zbekistondagi Erasmus+ milliy ofisi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tashkiliy ko‘magi asosida nashr etiladigan ilmiy-metodik jurnal, 13-son. -T.: NTM “NEO Hamkor”, 2023. -b.15-47.

7. To‘ychiyev A.G‘. Kichik biznesga innovatsiyalar transferini moliyalashtirish. Monografiya. “Fan” nashriyoti. Toshkent 2020. -224 b.

8. To‘ychiyev A.G‘. Agrobiznesni tashkil etish va boshqarish. O‘quv uslubiy majmua. Andijon 2020. 235 bet.

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI MODERNIZATSIYA QILISH VA BARQAROR RIVOJLANTIRISHNI TA'MINLASH

Ahrorqulov Jonibek Otabek o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Andijon fakulteti “Soliqlar va soliqqa tortish” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
ahrorqulovjonibek1@gmail.com

Annotatsiya: O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirishni ta’minlash, hozirgi kunning talabiga aylanib bormoqda. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini yanada rivojlanishdagi o‘rni, iqtisodiyot tizimini modernizatsiya qilish zaruriyati va ularning mamlakatning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan to‘siqlar tahlil qilinadi. Shuningdek, iqtisodiyotimizdagi turli yashirin iqtisodiyotning oldini olish va barqaror iqtisodiyotni ta’minlash kerakligi to‘g‘risida yoritib o‘tilgan

Kali so‘zlar: Yashirin iqtisodiyot, modernizatsiya, barqaror, fan, ta’lim, iqtisodiyot, innovatsiyalar, iqtisodiy islohotlar, texnologik yangiliklar, raqobatbardoshlik.

Abstract: Modernizing the economy of Uzbekistan and ensuring sustainable development is becoming a requirement of today. The article analyzes the role of the economy of the Republic of Uzbekistan in further development, the need to modernize the economic system, and the obstacles that prevent the sustainable development of the country. It is also highlighted the need to prevent various hidden economies in our economy and ensure a stable economy.

Key words: Hidden economy, modernization, sustainable, science, education, economy, innovations, economic reforms, technological innovations, competitiveness.

Аннотация: Модернизация экономики Узбекистана и обеспечение устойчивого развития становятся требованием сегодняшнего дня. В статье анализируется роль экономики Республики Узбекистан в дальнейшем развитии, необходимость модернизации экономической системы, а также препятствия, препятствующие устойчивому развитию страны. Также подчеркивается необходимость предотвращения различных скрытых экономик в нашей экономике и обеспечения стабильности экономики.

Ключевые слова: Скрытая экономика, модернизация, устойчивое развитие, наука, образование, экономика, инновации, экономические реформы, технологические инновации, конкурентоспособность.

O‘zbekiston iqtisodiyoti modernizatsiyasi, barqaror iqtisodiyot va jahon mamlakatlari bilan xalqaro hamkorlik masalalari O‘zbekistonning iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, barqaror iqtisodiyotni ta'minlash va yangi bosqichga olib chiqish va ko‘plab izlanishlar olib borish kerak ekanligi. Hozirgi zamon talablariga mos ravishda mamlakat